

NAZAR ESHONQULNING “MAYMUN YETAKLAGAN ODAM” HIKOYASIGA CHIZGILAR

Abdullayeva Rufina Usman qizi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
o‘zbek filologiyasi fakulteti
3-kurs talabasi

Annotatsiya: Yangi davr hikoyanavisligida Nazar Eshonqulning hikoylari o‘ziga xosdir. Uning hikoyalarida istiqlol davri nasriga xos bo‘lgan xususiyatlar, undagi shakliy va mazmuniy yangiliklar, hikoya janridagi o‘zgarishlar atroflicha namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi tahlili, undagi syujet, voqealar tizimi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, maymun, zanjir, bo‘yoq, surat, chol, hid, kontrastlik.

Kirish.

Nazar Eshonqul – istiqlol davri o‘zbek nasriga, xususan, hikoyachiligiga yangicha ohang olib kirgan mohir yozuvchi. U yaratgan hikoyalar biz shu kungacha o‘qigan hikoyalarimizga o‘xshamaydi. Ularda odatiy voqealar emas, favquloddagi hodisalar tilga olinadi. Bu hikoyalar dramatik ziddiyatlarga to‘la bo‘lib, unda shafqatsizhayotning achchiq haqiqati, insonning anglash mushkul bo‘lgan ruhiy olami keng tahlil qilinadi. Nazar Eshonqul o‘zining ilk hikoyalari bilan adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘ota olgan. Buning natijasida, bu hikoyalari xususida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilib, ularning g‘oyaviy-mazmuniy o‘ziga xosligi, badiiy idrok va ifoda prinsiplari, ijodkorningbadiiy mahorati masalalari atroflicha tadqiq etildi.

Ijodkorning “Istilo”, “Tobut”, “Qultoy”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi” kabi hikoyalari milliy adabiyotimizda yangi bir hodisa bo‘ldi. Nazar Eshonqul o‘z asarlarida inson ruhiy holatini jo‘n so‘zlar bilan emas, badiiyat vositalari orqali tasvir etadi. Tabiatga, jamiyatga bo‘lgan isyon, insoniyatni qurshab turgan iztiroblar ranglar, hidlar, suratlar orqali ifoda etiladi. Uning asarlarida keltirilgan surat va undagi ranglar orqali yozuvchi kitobxonni qahramonning ruhiy olamiga olib kiradi. Jamiyatdagi ijtimoiy holatlarni ana shu ramziylik orqali badiiy talqin qiladi. Xususan, yozuvchining “Maymun yetaklagan odam” asarida cholning chizgan suratlarini o‘quvchini o‘sha davr olamiga sayohat qildiradi. Bu suratlar mislsiz azoblarda o‘rtanayotgan, bor bisotidan, o‘zligidan ajralgan, dunyoga qo‘l siltagan inson ichki olamini namoyon qiladi. Ushbu suratlarda o‘z xotiralarini yengolmagan, taqdir so‘qmoqlarida adashgan odam so‘zlab turganday ko‘rinadi.

“Ayvon uzun bo‘lib, suratlar chizilgan yillariga qarab ko‘rgazmaga qo‘yilgandek terib qo‘yilgan, to‘g‘rirog‘i bor-yo‘g‘i qirqqa yaqin sur‘at va eskizlar “1957”, “1947”, “1937”, “1928”, “1926” va hakazo tartibda terib qo‘yilgan edi. Suratlarini oralab borar ekanman, qandaydir zinalardan cholning umr tilsimoti yashiringan qo‘rg‘on tomon ko‘tarilib borayotgandek his etdim o‘zimni...”

Asardagi ushbu satrlarni o‘qir ekanmiz, suratlarini o‘ngdan chapga qarab surat chizilgan yillar, o‘tmishdagi voqelikka ishora qilayotganini anglash qiyin emas. Ayniqsa, cholning “1921” yilda chizilgan sur‘ati e‘tiborni tortadi. “Surat ancha uquvsizlarcha chizilgan bo‘lsa-da, ranglari yorqin va tiniq edi. Suratda quyuoq o‘rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan barvasta gavdali yigit tasvirlangan



edi. Yigitning ko‘zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo‘yniga solingan kishan tarang tortilgan edi, qizg‘ish va javdari bo‘yoq yigitning ko‘nglidagi hisni to‘la aks ettira olgan edi”

Suratlar orqali cholning hayotida sodir bo‘lgan 30-yillardan keyingi voqealarning guvohi bo‘lamiz. Bunda surat shu qadar mahorat bilan chizilganki, kitobxonning ko‘z oldiga xo‘rlanish, tahqirlanish, adolatsiz tuzumning necha minglab insonlarning qurbon bo‘lishiga sababchi bo‘lgan partiyani qo‘llab-quvvatlash; to‘g‘ri yo‘ldaman deya o‘z vatandoshlarining umriga zomin bo‘lgan alaloqibatda esa ishongan g‘oyalari puch ekanligini tushunib odamlar orasidan o‘zini chetga tortib nima to‘g‘ri-yu nima noto‘g‘ri ekanligini sarhisob qilib, umrini taftish qilish bilan yashagan chol obrazi namoyon bo‘ladi. Oxirgi suratda esa maymun, ko‘zlariga g‘am cho‘kkan, umidsiz, munkaygan bir cholni o‘rmon sari yetaklab ketayotganligi tasvirlangan. Bu tasvir orqali nafaqat yozuvchining ijodiy mahorati, balki asarning kompozitsion qurilishini e’tirof etmaslik mumkin emas. Yozuvchi hayotning kirish va chiqish eshiklari bo‘lgani kabi san’atning ham kirish va chiqish eshiklari borligini badiiy tasvirlar misolida suratlarda chizib ko‘rsatadi. Asarda, ilk surat qahramonning sirli olamiga kirish uchun bir vosita bo‘lsa, cholning umr yakunidagi surati esa uning sirli olamdan olib chiqib eshiklarni qulflaydi va qahramonning ruhiyatidagi holat ham ana shu sirli olamdan uzilib o‘z nihoyasiga yetadi. Adibning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi 80-yillarning oxirlarida matbuotda e’lon qilinganida ko‘pchilikning nazariga tushdi. Hikoya mustabid tuzum haqida. Hikoya qahramoni hukumat uchun bor hayotini, aql-zakovatini butkul baxshida etgan shaxs. U bu ishlarida na o‘zini, na o‘zgalarni ayagan. Shu ishlarini deb barcha yaqinlaridan ham uzoqlashib ketgan. Hikoyada tuzumga qattiq ishongan, uning uchun butun umrini behuda sarf etgan, oxir-oqibat adashganini anglab yetgan odamning hayotiy fojeasi o‘zgacha tarzda ifoda etilgan. Asar muhim bir detal asosiga qurilgan. Ya’ni suratlar. Darhaqiqat, adib asarining butun mazmuni ham, mohiyati ham ikki qarama-qarshi suratlar vositasida ifoda etiladi. Qahramon cholning chizgan dastlabki suratida quyuq o‘rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan barvasta gavdali yigit tasvirlangan edi. Suratdagi yigitning yuzida ishonch barq urib turardi. Bu ishonch uning yuragidagi hissiyotini ham ifodalab turardi. Yigitning ko‘zida aks etib turgan qat’iyat va ishonch har qanday odamni o‘ziga tortardi. Muallif qahramon cholning o‘tmishini o‘quvchiga maydalab aytib bermaydi, uning birgina chizgan suratida hammasini ifodalaydi. Ba’zi o‘rinlarda qahramonining o‘z tilidan kichik-kichik ishoralarni keltiradi. Suratdagi yorqin ranglar cholning bir necha yillar muqaddam, ayni kuchga to‘lgan vaqtidagi zavqli hayotining timsoli sanaladi. Chol umrining oxirida yuqoridagi suratiga tamoman zid yana bir surat chizgan ediki, bu uning umri oxirida tan olgan haqiqatini o‘ziga singdirib olgan edi. Suratda xuddi avvalgisidagi kabi o‘rmon aks ettirilgan edi. Faqat bu gal maymun umidsiz ko‘zlariga g‘am cho‘kib qolgan, munkaygan bir qari cholni o‘rmon sari yetaklab ketardi. Adib butun bir hikoyadagi mazmunni ikki detal kontrastligidan foydalangan holda ifodalashga harakat qilib, buning uddasidan chiqadi. Shuni ta’kidlash joizki, suratlar faqat shu hikoya doirasidagina o‘zaro kontrastlik holatida. Agar ularning faqat birinigina ko‘rganda buni anglab bo‘lmaydi, yonma-yon qo‘yilganidagina ulardagi zidlik munosabati oydinlashadi. Bu o‘rinda ham ijodkor kontrastlikni sun’iy ravishda keltirib chiqaradi. Chunkiaslida ikkita surat bir-biriga keskin qarama-qarshi turolmaydi. Muallif qahramonining o‘tmishi va buguni o‘zaro zidligidan kelib chiqqan holda shu holatni ifodalash uchun anashunday shartli kontrastlikni paydo qiladi.

Yozuvchi mazmun mantig‘iga mos suratni so‘zda chizadi va butun mohiyatni shu suratga singdirib yuboradi. Asar boshida talaba yigit ko‘rgan o‘sha yorqin ranglar bilan chizilgan birgina surat bir insonning o‘tmishini gapirib turadi. Qachonlardir chol ham yosh bir yigit bo‘lib, o‘zi e’tiqod qilgan narsasiga qattiq ishongan, uning uchun kurashib, yonib yashagan, yigitning ko‘zidagi ishonch bir paytlar cholning yuragida bor edi. U umrining oxirigacha o‘sha holatda hayot kechiraman deb o‘ylagan, o‘zi xizmat qilayotgan tuzumiga e’tiqodi baland edi. Ammo, hayot o‘zanlari umuman boshqa yo‘nalishlarga burilib ketdiki, natijada chol birdan hamma narsasidan butunlay ayrildi. U e’tiqod qo‘ygan, ishongan



narsasi puch, yolgʻon va omonat ekanini anglab yetdi. U ezgulik deb sigʻingan narsasi aslida razolat ekanini, butun umrini bemaʼni maqsadlar yoʻlida sarflaganini tushundi. Eng achinarlisi bu dunyodan u dunyoga ketar paytida ruhan taskin topishiga yordam beradigan ilohiy eʼtiqodi butunlay yoʻq boʻlgan. Bu haqiqiy fojea edi.

Hikoya qahramoni umumlashma obraz sanaladi. Chunki, bu asarda oʻsha mafkuraga ishongan qanchadan-qancha odamlar aldandib, eʼtiqodidan ayrildilar va boqiy dunyoga iymonsiz ketdilar. Yemirilgan mafkura jamiyatdan ularni ham shaxs sifatida yemirib yubordi. Asar qahramoni juda kech qolib boʻlsada, oʻz hayotiy fojeasini tushunib yetgan shaxs. Chol oʻz umrini taftish etishdan, xatolarini tan olishdan qoʻrqmaydigan jasur shaxs edi. Ayni shu oʻrinlarda Nazar Eshonqul ijodiga xos boʻlgan yana bir muhim xususiyat yanada oydinlashadi. Ijodkor odatda, hikoyalaridagi asosiy maʼno tashuvchi yukni baʼzan qahramonining zimmasiga emas, balki asardagi kichik bir detalga yuklaydi. Cholning havaskorona chizilgan, koʻpchilikning eʼtiborini tortmaydigan, soʻnggi yillarda uning shilta hid kelib turadigan uy ayvonini toʻldirib turgan suratlar uning xarakteri, shaxsiyatini toʻla ochib beradi. Detallardagi kontrastlik orqali asar mohiyati ochib berilgan asar adabiyotimizda deyarli uchramaydi. Umuman olganda “Maymun yetaklagan odam” ajoyib hikoya. Fikrga chorlaydi Nazar Eshonqul ijodida, xususan, hikoyalarida kontrast usulining yana koʻplab anʼnaviy va zamonaviy koʻrinishlarni uchratishimiz mumkin. Adib kontrastdan foydalanishdan yangiliklar yaratadi va maqsadiga erishadi. Nazar Eshonqul jamiyatdagi zohiran nosogʻlom, botinan qaraganda ichki ruhiy konfliktlar girdobida qolgan odamlarga tashxis qoʻyib yurgan shifokorga oʻxshaydi. Bugun inson ruhiyati ogʻir talotoʻplar orasida qolgan bir paytda bunday shifokorning borligi ruhiyat ozuqasi boʻlmish adabiyot uchun nihoyatda zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonqul N. (2004). “Maymun yetaklagan odam” Toshkent “Yangi asr avlodi” nashriyoti
2. Xolmatov D. Hikoyalarda davr va qahramon masalasi maqola. SCIENTIFIC PROGRESS Fargʻona davlat universiteti
3. Normatov U. (2000). Umidbaxsh tamoyillar. –T.:, Maʼnaviyat.
4. Norbekova A. “Nazar Eshonqul hikoyalari uslubi. “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi misolida” ilmiy maqola.
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/nazar-eshonqul-bilan-odam-jamiyat-adabiyot-va-fikr-haqida-suhbat.html>

